

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Shernazarov, X.Jamolova	
"BOBURNOMA"ning forscha misralari	91
S.Halimov	
E.A.Poning hikoyalarida ijtimoiy davr va falsafiy mushohadakorlik dialektikasi	95
<hr/>	
TILSHUNOSLIK	
Z.Akbarova, M.Buvajonova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun elektron o'quv lug'atlarini yaratishning zarurati xususida.....	100
G.Davlyatova	
Ritorikani (notiqlik) nutq san'ati sifatida o'rganish.....	103
B.To'rayeva	
Xronotop poetikasining o'ziga xos xususiyatlari	107
Z.Alimova, S.Gafurova	
"SADOI TURKISTON" gazetasi va undagi bir maqola xususida	114
G.Raximova	
Ingliz reduplikativ elementlarning funksional semantikasiga oid lingvistik qarashlar	120
J.Ibragimov	
Jahon tilshunosligida <i>collocation</i> atamasi va uning tadqiqi	123
N.Xasanboyeva	
Zamonaviy fransuz tilida so'roq gaplar semantikasi va funksional xususiyatlari	127
D.Ganiyeva, D.Ismoilova	
Struktur tilshunoslikning nazariy asoslari	130
M.Qurbanova	
O'zbek tilshunosligida okkazional birliklar tadqiqi	134
L.Masharipova	
Til va madaniyat	139
Sh.Jumaqulova	
O'zbek tilida "xursandchilik" etimonlari qo'llanilgan frazeologik birliklar ifodalanishi	144
X.Maripova	
Nemis tilidagi harbiy frazeologik birliklarining sotsiopragmatik xususiyatlari	147
A.Mattiiev	
Ravish tasnifiga doir yondashuvlar	151
A.Yuldashev	
So'z ma'nosi xususida	154
D.Gaziyeva	
Funksional va stilistik jihatdan media tili	159
U.Yokubbayeva	
"Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobida qo'llangan "yashil" leksemasining semantik takomili	164
N.Umarova, M.Abduolimova	
Alisher Navoiy she'riyatida o'xshatish qurilmalari	170
<hr/>	
MATEMATIKA	
A.Xasanov, I.Jalilov	
$F_{0;3;3}^{2;2;2}[x, y]$ gipergeometrik funksiya uchun integral ko'rinishlar va bu funksiyani qanoatlantiruvchi gipergeometrik tipdagi differensial tenglamalar sistemasi	173
D.Usmonov, A.Urinov	
Soha chegarasining barcha qismida buziladigan to'rtinchi tartibli tenglama uchun chegaraviy masalalar	185

FIZIKA – TEXNIKA

M.Maxmudova, Sh.Shuxratov	
Frezer stanoklarida metallarga ishlov berish texnologiyalari va uning innovatsion usulda o'qitilishi	193

TIL VA MADANIYAT**ЯЗЫК И КУЛЬТУРА****LANGUAGE AND CULTURE****Masharipova Leninza Axmedjanovna¹****¹Masharipova Leninza Axmedjanovna**

–Urganch davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Til insoniyat ega bo'lishi mumkin eng muhim vositatadir. Til orqali biz bir-birimizga fikrlarimizni bayon qilamiz va ma'lumotlarni yetkazamiz. Tilsiz, ushbu quolsiz biz nafaqat o'z qarashlarimizni ifodalay olmaymiz, balki rivojlanishimizga, unib-o'sishimizga asos bo'lувчи elementlarni qura olishimiz ham imkonsiz. Shuning uchun til dunyo bo'ylab har xil jamiyat va sivilizatsiyalar orqali rivojlanib kelmoqda, desak mubolog'a bo'lmaydi. Tilni o'rganishning o'zi juda qiziqarli jarayon bo'sa-da, tilni o'rganishga alohida e'tibor berilishi kerak, chunki u alohida jamiyatlarga va tilning rivojlanish va evolyutsiya jarayoniga tegishli xossadir. Til jamiyatdagи madaniyat va uning dunyonи idrok etishdagи aksdir; u axborotni uzatar ekan, shu orqali ma'lum bir jamiyat bu ma'lumotni qanday qabul qilishini, qayta ishlashini, baholashini va yetkazishini ko'rsatadi. Muayyan tilning vaqt o'tishi bilan rivojlanishi, undan foydalanadigan jamiyat yoki jamiyatlarning vaqt o'tishi bilan qanday rivojlanishini ko'rsatadi, madaniy nuqtayi nazar, ijtimoiy tarkib va siyosiy sharoitlardagi o'zgarishlar tilning xususiyatlari chuqur ta'sir qiladi.

Аннотация

Язык – самое важное средство, которым может обладать человечество. С помощью языка мы выражаем друг другу мысли и передаем информацию. Без языка, без этого оружия мы не только не сможем выразить свое видение, но и, несомненно, вряд ли сможем увидеть элементы, лежащие в основе нашего развития, нашего роста. Поэтому не будет преувеличением сказать, что во всем мире язык развивается в различных обществах и цивилизациях. Хотя изучение языка само по себе является очень увлекательным занятием, изучению языка следует уделять особое внимание, поскольку он имеет отношение к отдельному обществу, процессу развития языка и процессу эволюции. Язык это культура общества и ее отражение восприятия мира; передавая информацию он показывает, как конкретное общество воспринимает, обрабатывает, оценивает и передает эту информацию. Развитие определенного языка с течением времени показывает, как с течением времени развивается общество или общества, которые его используют, в то время как изменения в культурных взглядах, социальных положениях, политических условиях оказывают глубокое влияние на характеристику языка.

Abstract

Language is the most important tool that humanity can have. We express our thoughts and convey information to each other through language. Without language, without this weapon, we can not only express our views, but also we can not build the elements that are the basis of our development and growth. Therefore, it is no exaggeration to say that language is developing through different societies and civilizations around the world. Although language learning itself is a very interesting process, special attention should be paid to language learning, because it is a property of particular societies and the process of language development and evolution. Language is a reflection of culture in society and its perception of the world; as it transmits information, it shows how a particular society receives, processes, evaluates, and sends this information. The development of a particular language over time shows how the society or societies that use it develop over time, and changes in cultural outlook, social composition, and political conditions profoundly affect the language's characteristics.

Kalit so'zlar: til, madaniyat, jamiyat, rivojlanish, urf-odatlar, o'xshashlik, axborot, baho, millat, tinglovchi.

Ключевые слова: язык, культура, общество, развитие, традиции, идентичность, информация, оценка, нация, слушатель.

Key words: language, culture, society, development, traditions, similarity, information, evaluation, nation, audience.

KIRISH. Til va tilshunoslik to'g'risida gap borganda mazkur til sohiblari madaniyatini qayd etmay bo'lmaydi. Inson tili rivoji uning madaniyati, urf-odatlariga bevosita aloqasi bor, millat madaniyatining rivoji esa, tilsiz amalga oshmaydi. Har bir til millat tomonidan dunyonи, uni o'rab turgan muhitni qay darajada tushunishini o'zida aks ettiradi, bu narsa o'z navbatida tinglovchining qayd etilgan masaladagi, ya'ni uni o'rab turgan muhit bo'yicha hayotiy tajribasining darajasi ko'rsatkichiga bog'liq. [1,2]

Susan Barfield va Joelle Ozarks til va madaniyat yuzasidan qiziq bir o'xshatishni ilgari surishadi. Ularning fikricha, "Til dalada o'sadigan o'tlarning bir qismidir, ya'ni yong'in sodir bo'lganda, o'tlar yonib ketadi, lekin ularning ildizi yer ostida saqlanib qoladi. Ana shu ildizlar inson madaniyatini eslatadi" [12,14]. Demak, til turli sabablar bilan yo'q bo'lib ketsada, inson madaniyatini saqlanib qoladi: yo yangi til, yo chet tillar yordamida madaniyatni tiklash mumkin. "Dunyo tili, ya'ni xalqaro til vazifasini o'tayotgan ingliz tili yordamida tilini yo'qotgan millatlarning urf-odatlari, qadriyatları, madaniyatini yo'qolib qolishini oldini olish mumkin". [12,15]. Bu narsa bugungi kunda o'z ona tilisini yo'q qilib, ba'zi chet tillarini muloqot vositasi sifatida qabul qilayotgan millatlar hayot tajribasidan kelib chiqib, yaratilgan, rivojlantirilayotgan fikrlardan birdir.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODLAR. Til va madaniyat o'ttasidagi bog'liqlik M.T.Iriskulov, Zvigensev.V.A., Brooks Peterson, Alfred Kroeber va Clyde Kluckhohn, Noam Chomsky, Edward Sapir, Benjamin Lee Whorf, V.T.Klokov, G.Yu.Bogdanovich, Allen J.Frank va Peter B.Golden, P.P.Ivanov, A.Yu.Yakubovskiy, X.Hukhem, M.Ermakov, A.Nurmonov, Z.K.Tarlanov, N.Brown, M.Byram, C.Morgan va Y.H.Tseng, Kramsh kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

"Madaniyat" terminini izohlab, turlari haqida tushuntirib o'tgan bir qator olimlar – Sh.Safarov, Frans Boas, R.Uilyams, E.Taylor, U.Tomas, M. Xaydeger, M.Veber, G.Frantsev, N.Chavchavadze, E.Markaryan, Yu.A.Sorokin, E.F.Tarasov, V.N. Sagatovskiy, Yu.M.Lotman, B.A.Uspenskiy, L.Kertman, V.Bibler, S.S.Averintsev, M.Mamardashvili, S.S.Averintsev, Erik Wolf, D.Merdok, B.Malinovskiy, P.Harris va R.Moran, C.Franke, C.Ovando, V.Collierlarning tadqiqotlarini keltirish mumkin.

C.Josef, M.Winzar va V.Pollard kabi olimlarning fikricha, AQSH, Buyuk Britaniya va Avstraliyada ingliz tilini o'qitishda na mahalliy tillarga, na ularning madaniyatiga hech qanday ahamiyat berilmayotganligi achinarli holdir. Bu narsa mayda mahalliy millatlarning qonuniy huquqlari poymol qilinayotganligining guvohidir, lekin shu bilan birga Meksika, Ekvador va Peru kabi mamlakatlarda esa, o'z mahalliy o'qitish davlat dasturlariga til va madaniyat masalasi davlat talabi darajasiga ko'tarilib, ular faol o'qitilmoqda. [7,5]. Bu mamlakatlarda ingliz tilini o'qitishga munosabat salbiydir. Xalqaro jamiyatda ingliz tiliga berilayotgan ahamiyat hisobga olinsa, qayd etilgan mamlakatlardagi chet til siyosatini ijobjiy baholab bo'lmasa kerak. Zamonaviy globalashuv davrida millatlararo ijtimoiy, siyosiy munosabatlarni yo'lga qo'yish, global tinchlikni ta'minlashda yagona xalqaro muloqot vositasi vazifasini bajaradigan til bo'lishi lozimligini inkor etib bo'lmaydi. Xalqaro muzokaralarda hal qilinayotgan muammolarni ijobjiy yechimiga erishishda ushbu tadbirda ishtirok etayotgan tomonlar madaniyati, urf-odatlari, zamon talablari asosida amal qilinmasa, maqsadga erishish oson ko'chmaydi.

Demak, avval qayd etilganidek, tilni madaniyatdan, madaniyatni esa tildan ajratib bo'lmaydi. Asrlar davomida qo'lga kiritilgan millat madaniyati, urf-odatlari, qadriyatları tilda o'z aksini topadi va bu narsa avloddan-avlodga til orqali yetkaziladi. [1, 3]

Maqolada adekvat holatda o'rganishni ta'minlashga qaratilgan metodlar majmuyi qo'llanildi: nazariy (tahliliy-statistik, qiyosiy-taqqoslash, modellashtirish), diagnostik (kuzatish), prognostik (ekspert baholash, mustaqil ishlarni umumlashtirish) va boshqalar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Tilshunoslar, ona tili va chet tili o'qituvchilari tomonidan madaniyatni ta'riflashga turlicha yondashiladi. Ularning ba'zilari quyida keltirilgan:

Taniqli olim B.Malinovskiy fikricha, "Madaniyat barcha ijtimoiy fanlar uchun asosiy, yetakchi muammodir". [5,6]

N.Brooks yozishicha, "madaniyat bu kundalik hayotda ro'y beradigan voqeа va hodisalarda insonning o'zini tutishidir. Inson yoshligidanoq imkon darajasida turli hayotiy holatlarni o'ziga moslashtiradi hamda atrofdagilarni ham bu yondashuvga amal qilishga va o'zi yashayotgan jamiyat urf-odatlari sifatida unga bo'ysunishga chaqiradi" [10, 16]

P.Harris va R. Moran "Madaniyat – har bir millatning turmush tarzi" deb baho beradilar. [11, 15]

C.Franke qayd etishicha, "Madaniyat – bu birorta mamlakatning geografik kartasini tuzishga mo'ljallangan ko'rsatmalar va navigatsiya yo'llanmalariga o'xshagan narsadir. Turli madaniyatlar kemalarning suvdagi navigatsion yo'naliishlarini belgilab beruvchi navigatsion kartalarni eslatadi" [6,6]

TILSHUNOSLIK

“O’zbek tilining izohli lug’ati” da “madaniyat” ga quyidagicha izoh beriladi: 1. “... jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy hayotida qo’lga kiritgan yutuqlari majmuasi”; 2. “Biror ijtimoiy guruh, sinf yoki xalqning ma’lum davrida qo’lga kiritgan yutuqlar darajasi”; 3. “O’qimishlilik, ta’lim-tarbiya ko’rganlik, ziyolilik, ma’rifat”. [4, 521]

C.Ovando, V.Coller va N.Brooks millat madaniyatini ikki turga bo’lib o’rganishni tavsiya etishadi, ya’ni “kichik” “c” bilan ifodalangan madaniyat va “katta” “C” bilan ifodalangan madaniyat (culture with a small “c” and culture with capital “C”) [8, 16]. Kichik “c” bilan yoziladigan “madaniyat” atamasи har bir millatga xos bayramlarni nazarda tutadi, masalan “yangi yil bayrami”, “mustaqillik kuni” va boshqalar.

Katta “C” bilan ifodalanadigan madaniyat deganda millatlarga xos keng ko’lamli urf-odatlar, ya’ni keng qamrovli madaniyat nazarda tutiladi, xususan: millatga xos rassomchilik, yaratilgan adabiy asarlar, musiqa, kiyim-kechaklar, katta va kichik yoshdagи insonlar orasidagi munosabat va boshqalar. Yuqorida nomi tilga olingan olimlarning deyarli hammasi millat madaniyatini doimo rivojlanishda, dunyoda, xalqaro hamjamiyatda qotib qolgan, rivojlanish, yangilanishdan to’xtab qolgan hech narsa yo’qligini alohida qayd etadilar. [1, 5]

Bundan tashqari, V.T. Klokovning til va madaniyat o’tasidagi munosabatlarga semiotik yondashuv asosida lingvokulturologik tadqiqotlarning to’qqizta yo’nalishi birma-bir izohlab o’tilgan. Mazkur bobda zamonaviy lingvomadaniyatshunoslikning millat madaniyatini turlarga ajratishga oid yondashuvlari to’g’risida quyidagi fikrlar izohlari bilan yozib o’tilgan.

1. Tavsifiy yondashuv, ya’ni unda madaniyatning kelib chiqishi va alohida elementlari - urf-odatlar, faoliyat ko’rinishlari, qadriyatlar, ideallar va boshqalar sanab o’tiladi.

2. Qadriyatlarga ko’ra yondashuv. Bunda madaniyat inson yaratgan ruhiy-ma’naviy va moddiy qadriyatlar yig’indisi sifatida izohlanib, obyekt qadriyatga aylanishi uchun inson unda shunday xususiyatlarni ko’rishi kerakligi ta’kidlanadi.

3. Faoliyatga ko’ra yondashuv. Bunda madaniyat insonning o’z ehtiyojlarini qondirish usuli sifatida bo’y ko’rsatadi.

4. Vazifaviy jihatdan yondashuv. Bunda madaniyat jamiyatdagi vazifalari: axborot (informatsion), moslashuv (adaptatsion), aloqa aralashuv (kommunikativ), tartibga solish (regulyativ), me’yoriy (normativ), baho berish, birlashtirish (integrativ), ijtimoiylashuv (sotsializatsiya) va boshqa vazifalariga ko’ra tavsiflanadi.

5. Germenevtik yo’nalish. Bunda madaniyatga matnlar to’plami sifatida murojaat qilinadi.

6. Me’yorga asoslangan yondashuv. Bunda madaniyat insonlar hayoti va yashash tarzini tartibga solib turuvchi me’yor hamda qonuniyatlar jamlanmasini ifodalandaydi.

7. Ma’naviy-ruhiy qarash. Ushbu yo’nalish tarafdarlari madaniyatni jamiyatning ma’naviy hayoti, g’oyalar va ma’naviy ijodning boshqa mahsullari sifatida tushunadilar.

8. Dialogik yo’nalish yoki madaniyatni “madaniyatlar dialogi” (V.Bibler) - uning subyektlari o’tasidagi munosabat shakli (V.Bibler, S.S.Averintsev, B. A. Uspenskiy) deb baholash. Bunda muayyan xalq yoki millatga tegishli bo’lgan, shuningdek, etnik va milliy madaniyat turlari farqlanadi. Milliy madaniyat tarkibida submadaniyatlar ham mavjud bo’ladi.

9. Axborotga asoslangan yondashuv. Bunda madaniyat axborotni tuzish, saqlash va uzatish tizimi sifatida namoyon bo’ladi.

10. Ramziylik tamoyili madaniyatda ramzlarning ishlatalishiga e’tibor beradi. Madaniyat - bu “ramzlardan iborat olam”dir (Yu.M.Lotman).

11. Tipologik tamoyil. (M.Mamardashvili, S.S.Averintsev) Boshqa millat vakillari bilan uchrashganlarida insonlar o’z madaniy belgilari bilan solishtirib ko’rishga moyil bo’ladilar - “o’z qarichlari bilan o’lchab” ko’radilar.

Mazkur ilmiy ishda “madaniyat” termini to’laligicha tahlil qilinib, uning turlari haqida ham batafsil to’xtalib o’tilgan. Uning milliy, xalqaro, submadaniy va ommaviy turlari esa quyidagicha ifodalanib o’tilgan:

Milliy madaniyat bir millat fuqarolari tomonidan baham ko’rilgan e’tiqodlar, o’rganilgan xulq-atvor namunalari, qadriyatlar va institutlarni o’zida mujassam etadi.

Xalqaro madaniyat milliy chegaralardan tashqarida tarqaladi. Madaniyat genetik jihatdan emas, balki o’rganish orqali uzatilganligi sababli, madaniy xususiyatlarni o’zlashtirib olish yoki bir guruhdan ikkinchisiga o’tish orqali tarqalishi mumkin. Diffuziya, migratsiya, mustamlakachilik va

globallashuv tufayli ko'plab madaniy xususiyatlar va naqshlar xalqaro miqyosga ega bo'ldi. Zamonaviy Amerika Qo'shma Shtatlari, Kanada, Buyuk Britaniya va Avstraliya Buyuk Britaniyadagi umumiy til va madaniy ajdodlaridan meros bo'lib qolgan madaniy xususiyatlarni baham ko'radi. Ko'p turli mamlakatlardagi Rim katoliklari o'z cherkovlari tomonidan e'tiqod, ramz, tajriba va qadriyatlarni o'zlashtirib olishgan. Jahan kubogi xalqaro madaniy hodisaga aylandi, chunki ko'plab mamlakatlarda odamlar futbol qoidalarini bilishadi, o'ynashadi va unga rioya qilishadi.

Madaniyatlar ham millatlardan kichikroq bo'lishi mumkin. Garchi bir mamlakatda yashovchi odamlar milliy madaniy an'anaga ega bo'lsalar ham, barcha madaniyatlar xilma-xillikni ham o'z ichiga olishi shubhasiz. Madaniyat doirasidagi shaxslar, oilalar, jamoalar, mintaqalar, sinflar va boshqa guruqlar turli xil o'rganish tajribalari bilan bir qatorda umumiy tajribaga ega.

Bulardan tashqari, yana madaniyatning submadaniyat va ommaviy madaniyat kabi turlari ham mavjud.

Submadaniyat – turli ijtimoiy guruqlar madaniyatidir. Afsuski, ijtimoiy guruhni tashkil qiluvchi a'zolar (kishilar) o'zlarinikiga nisbatan murakkabroq, saviyasi balandroq madaniyat ko'rinishlarini qabul qila olishmaydi, uni tushunishmaydi. Submadaniyatga ijtimoiy qatlamlar – shaharliklar, qishloq aholisi, yoshlar, ishchilar, dehqonlar, o'rta qatlam, quyi qatlam va hatto yuqori qatlam kiradi. Gap shundaki, shu qatlamga kiruvchi kishilar faqatgina o'zlarining qatlamiga tegishli madaniyatni yoqtiradilar, qolgan qatlamlardagi madaniyat turi ularga begonadek, tushunarsiz ko'rindi. Chunki submadaniyat har bir o'ziga tegishli guruhni boshqa guruh madaniyatlaridan "ihota qiladi". Masalan, eng rivojlangan va faol bo'lgani – yoshlar submadaniyati. Yoshlar submadaniyatining markazini musiqa tashkil qiladi (asosan pop va rok musiqalari). Bu submadaniyatning keyingi elementini esa kiyim, uslub va boshqalar tashkil qiladi. [13]

Yana bir madaniyat turi esa ommaviy madaniyatdir. Ommaviy madaniyat – barcha uchun tushunarli, barcha foydalana oladigan, butun ommani har tomonlama qoniqtira oladigan madaniyat turidir. Biroq XX asrga kelib, falsafa, sotsiologiya va madaniyatshunoslik sohalari ommaviy madaniyatni boshqacha talqin qila boshladi. Bir qator olimlar tomonidan ommaviy madaniyat, birinchidan, rivojlanishning muayyan bosqichiga yetgan jamiyat uchun xos xususiyat; ikkinchidan, ommaviy axborot vositalari (gazeta, radio, kino, televideniya va boshq.)ning rivojlanishi bilan bog'liq xususiyat; uchinchidan esa, salbiy holat sifatida izohlandi.

Komil Kalanov va Umida Sabirovalar tomonidan yozilgan "Ijtimoiy Antropologiya" [2, 74] o'quv qo'llanmasida esa ommaviy madaniyatga quydagicha izoh berilgan: Ommaviy madaniyat - madaniyat mavjudligining murakkab, hamma vaqt bir xilda talqin qilinmaydigan o'ziga xos shakli. "Ommaviy madaniyat G'arb madaniyati bilan bog'liq hodisa deb tushuniladi, shuningdek, u g'oyasizlik, sifatsizlik va didsizlik namunasi sifatida talqin qilinadi. Ommaviy madaniyat chuqur ijtimoiy va madaniy ildizlarga ega. Ommaviy madaniyat paydo bo'lishining ijtimoiy-iqtisodiy ildizlari yirik sanoat ishlab chiqarishning paydo bo'lishi bilan bog'liq.

XULOSA. Til va madaniyat o'tasidagi uzviylik chet tillarni o'rganuvchilarga ham o'ziga xos ta'sirini o'tkaza boshladi, chunki muloqot mahoratiga erishish uchun chet tilining fonetikasi, grammatikasi va so'z boyligini bilishning o'zi kifoya emasligi nutq jarayonida sezila boshlandi. E.Sapir, N.Brown, M. Byram, C. Morgan va Y.H. Tseng fikricha, tilda ravon gaplashish yuqorida qayd etilgan bilim, ko'nikma va malakalardan tashqari, ushbu til egalarining turmush tarzi bilan bog'liq madaniyatidan ham boxabar bo'lib, o'z milliy urf-odatlari, qadriyatlari bilan bir qatorda o'zlashtirilayotgan til egalarining madaniy-maishiy tomonlaridan xabardor bo'lishlari, ularga nutq jarayonida talab darajasida amal qilgan holda muloqot qilish bugungi kun talablari hisoblanadi. Xalqaro miqyosda hozirda amal qilayotgan xorijiy tilni o'rganish amaliyotida "Culture – specific meanings/communicative or cultural competence", ya'ni "madaniyatning o'ziga xos ma'nolari, muloqot yo madaniy mahorat" degan iboralar keng ko'lamma qo'llanilmoqda. [9, 19]

Til va madaniyat o'tasidagi umumiylig, o'xshashlik qanchalik darajada bo'lmisin, ularni farqlovchi xususiyatlar ham yetarlidir.

Madaniyat ham belgilar, ishoralar tizimidir, ammo ushbu sistema til tizimidan farqli tarzda, o'z-o'zidan tartiblashish, tizimlashish xususiyatiga ega emas. Til barcha uchun bir xil vazifa bajaruvchi "jamoaviy adresatli" hodisa bo'lsa, madaniyatda esa ko'proq elitarlik (saralilik) namoyon bo'ladi (Sh. Safarov). Fikrimizcha, til va madaniyat o'tasidagi munosabat aynanlik (izomorflik) dan ko'ra strukturaviy o'xshashlikdan iborat deyish, to'g'riqoq bo'ladi. [3,85]

TILSHUNOSLIK

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Iriskulov M.T. "Zamonaviy globallashuv jarayonida millat tili va madaniyatining o'rni". 2020 yil – ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili/2020 год – развития науки, просвещения и цифровой экономики. ("The role of national language and culture in the process of modern globalization". 2020 is the year of development of science, enlightenment and digital economy)
2. Komil Kalanov, Umida Sabirova "Ijtimoiy Antropologiya". Toshkent "Go To Print" 2020. 74- bet. ("Social Anthropology". Tashkent "Go To Print" 2020. Page 74)
3. Ubaydullayev Sh.N. "Kasb-hunar kolleji o'quvchilariga madaniyatlararo muloqotni o'rgatish". Dissertation.2009. ("Teaching intercultural communication to vocational college students" Dissertation.2009)
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi". Davlat nashriyoti, 2006y. 2-jild. 521-bet (An explanatory dictionary of the Uzbek language. "National Encyclopedia of Uzbekistan". State Publishing House, 2006. Volume 2. Page 521)
5. Bronislaw Malinowski, The group and the individual in functional analysis. American Journal of Sociology. 1939
6. C. Franke. Plying frames can be dangerous. Some reflections on methodology in cognitive anthropology. In R. Caisson (Ed) Language, culture and cognition. New York: Macmillan
7. C. Joseph, M. Winzar and V. Pollard. "Schooling in Australia: The interplay of education politics, and culture". In schooling around the world: Debates, Challenges and practices,ed." 2006
8. C. Ovando, V. Collier. Bilingual and ESL classrooms. New-York: McGraw – Hill. 1985
9. E. Sapir. Culture, language and personality. Bekeley, C.A.: University of California Press. 1949
10. N. Brooks. "Teaching culture in the foreign language classroom". Pathways to culture warmout Intercultural Press. 1997
11. P. Harris & R. Moran. Managing cultural differences. Houston: Gulf Publishing.1979
12. Susan C. Barfield and Joelle Ozarks "Integrating Inde gene Nous Cultures into English language and teaching". 2009. English Teaching Forum.47. Number 1
13. <https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaql-ish-kurs-ishi/item/13359-madaniyat-va-sivilizatsiya-madaniyatning-asosiy-turlari-va-yo-nalishlari>